ABDURAUF FITRATNING “ARUZ HAQIDA” ASARIDA ZAMONAVIY SHAKL VA USULLAR HAQIDA

Rahmonova Umida Tolibjon qizi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23027609

Annotatsiya: maqolada Abdurauf Fitrat tomonidan XX asr o‘zbek adabiyotida yaratilgan “Aruz haqida” asaridagi yangi shakl va usullarga doir qarashlari haqida so‘z yuritiladi. Maqolada Fitratning chuqur aruzshunos bo‘lganligi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Aruz haqida”, shakl, usul, aruzshunos, uzun cho‘zgilar, qisqa cho‘zgilar, aruz vazni, “chirmanda” usul, unlilar, she’rshunoslik ilmi.

Аннотация: в статье рассматриваются взгляды Абдурауфа Фитрата на современные формы и методы в его произведении "Об арузе," созданном в узбекской литературе XX века. В статье говорится о том, что Фитрат был глубоким знатоком аруза.

Ключевые слова: "Об арузе," форма, метод, арузовед, длинные протяжки, короткие протяжки, размер аруза, метод "чирманда," гласные, наука о поэзии.

Abstract: The article discusses Abdurauf Fitrat's views on modern forms and methods in his work "About Aruz," created in 20th-century Uzbek literature. The article discusses Fitrat's deep knowledge of aruz.

Key words: "About Aruz," form, method, aruz scholar, long strokes, short strokes, aruz meter, "chirmanda" method, vowels, the science of poetry.

She’r ilmining chuqur bilimdoni sifatida Abdurauf Fitrat poetika, vazn va badiiyat masalalariga oid qator tadqiqot va risolalar yaratgan. Uning ilmiy faoliyatida she’r va shoirlik mohiyati, mumtoz hamda milliy she’r tizimi, shuningdek, she’riyatning badiiy adabiyotdagi o‘rni kabi masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. O‘z davrining qomusiy olimi bo‘lgan Fitrat mumtoz she’r nazariyasini tadqiq etish borasida salmoqli ilmiy izlanish olib borgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar o‘z davri uchun katta ahamiyat kasb etgani kabi, bugungi adabiyotshunoslik uchun ham o‘z ilmiy qiymatini saqlab kelmoqda.

Aruz she’r tizimi XX asrdan keyingi davrda eskirgan vazn sifatida qaralgan bo‘lsa-da, adabiyot tarixini chuqur o‘rganish va mumtoz asarlarni tahlil qilishda uning nazariy asoslarini bilish muhim ahamiyatga ega ekanini olimlarimiz yaxshi anglab yetganlar. Xususan, Abdurauf Fitrat ham dastlab “aruzning bizning tilga yaramag‘anlig‘i” borasida aruz she’r tizimi va uning sun’iy sxolastik qoidalari, “faulunchilik”, “zihofot” chilik msalasida fikrlari ijobiy bo‘lmagan[1]. Olim bu boradagi qarashlarini “She’r va shoirliq” maqolasi va “Adabiyot qoidalari” darsligida daliliy baytlar asosida fikrini isbotlagan. Fitrat “She’r va shoirliq” maqolasida aruz vazni o‘ynoqi tillar uchun mos kelishini, turkiy til esa og‘ir, viqorli, gavdali ekanligini, bu vazn turkiy til uchun mos emasligini ta’kidlaydi. Vaznni turkiy tilga moslashtirish uchun ikki usul: arabiy, forsiy so‘zlarni qo‘shish, turkiy tildagi so‘zlarning “gavdasini buzish” ga majbur bo‘lish kerakligini aytadi. Olim Navoiyga murojaat qilib, turkiy so‘zlar “gavdalarini buzmay” she’r aytishga majbur bo‘lgani, bundan o‘zini qutqara olmaganini

Yuzingni ko‘rib, meni ramida

[1] Фитрат. Адабиёт қоидалари. 4-жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 35.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Ishq o‘tig‘a bo‘lg‘ali giriftor,

Baytidagi “yuz” so‘zini “yuzz” tarzida buzib aytmaguncha, vaznga to‘g‘ri kelmasligini isbot tarzida keltiradi[2]. Olimning bu qarashlari “Adabiyot qoidalari” asarida ham o‘z aksini topgan.

“Hazrat Navoiy hamon turklikni o‘z ijodining maqsadi bilib, turk alfozini jahonda ustuvor qilishga kirishgan ekan, garchi turk vaznida asarlar bitmagan bo‘lsa ham, aruz qoidalarini turk tilining tovush xususiyatlarini aks ettiradigan qilib qayta ishlashi, aruz talablarini shu tilga moslashtirilgan vazn va vazn bo‘laklarini “ishlab chiqish” bilan “aruziy turkiy” yaratishni orziqib kutgan edi. Buning uchun Fitrat aruz vaznini “chirmanda usuli” ga ko‘chirishga urungan. Anglashilishicha , maqsad aruz nazariyasini yangilash emas, balki uning amaliyoti masalasini yaxshilash, ya’ni zamonaviy shoirlar tomonidan aruzni keng iste’molga olib kirishdir”[3]. Aruz va aruz vazni haqida ochiq va yopiq hijoni uzun cho‘zgilar va qisqa cho‘zgilar deb ataydi. **A, i, u** unlilarini shu turkumga ajratadi. “Chirmanda” usulini ishlab chiqadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Fitratning “Aruz haqida” asarida turkiy aruz qoidalari o‘ziga xos, fitratona yondashuv asosida bayon etilgan. Muallif aruz vaznining imkoniyatlarini sun’iylikdan xalos etish maqsadida “chirmanda usuli”ni taklif qiladi. Olimning ta’kidlashicha, mazkur usul Sharq ilmiy-adabiy tafakkurida ilk tajribalardan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi aruzni sxolastik qoidalar doirasidan chiqarish va unga yangicha, amaliy yondashuvni shakllantirishdan iborat. Asar tarkibidagi ruknlarni berishda ham childirma ohangiga mos taqlidiy so‘zlarni qo‘llab tushintiradi.

Ishlarimizni bo‘ldurduq
bakko bako bak bakko bak
- V V - - / - - -
Dushmanimizni so‘ldurdiq.
bakko bako bak bakko bak
- V V - - / - - -

Fitrat bu atamalarni shunchaki qo‘llamagan, hijolar sifatini berishda “faulun” kabi arabiy, forsiy istilohlar o‘rniga klassik musiqamizning usul qoliplari (chirmanda usuli) ni keltirgan. Unga ko‘ra:

- -	bakko
V V	baka
- V	bakka
V -	bako
- bak[4]	

so‘zlari afoyil vazifasini bajargan. Olim hijolar taqsimotida ikki hijoni taqdim etadi: To‘liq hijo va qisqa hijo. “Yopiq hijo” va “ochiq hijo” atamalarining o‘rniga “to‘liq hijo” va “qisqa hijo” atamasini almashtirgani sababini so‘zlar misolida izohlaydi. Unli bilan tugagan “ochiq hijo (V)” urg‘u olish imkoniyati bilan “to‘liq hijo (-)” ga o‘zgarishi mumkin, shunga tayanib, “ochiq hijo” atamasidan voz kechib, “to‘liq hijo” va “qisqa hijo” atamasini taklif qiladi, turkiy til imkoniyatlariga moslashtirilgan vazn imkoniyatlarini yangi alifboda taqdim qilayotgani bois transkripsiyalar asosida beradi. Fitrat “Aruz haqida” asarining dastlabki qismida she’r ilmi: aruz va uning tarixi xususida to‘xtaladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, olim ayni o‘rinda salaflari va ularning fikrlariga munosabatlarini ham bildirib o‘tadi. Xususan, Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida keltirilgan shoirning aruz va xalq she’riyati borasidagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi, barmoq va aruz vazni imkoniyatlarini, farqli jihatlarining qiyosini keltiradi.

Aruz she’riy tizimi arablardan forsiy va turkiy adabiyotga keng yoyildi. Hijratning ilk asrlarida Arab xalifaligi butun Eronni fath etdi. Qadimiy Sosoniylar davlati madaniyati tomir otgan bu hududlarga islomiyat va arablar bilan Qur’oni Karim va u ifodalangan til – arab tili kirib keldi. Natijada

[2] Фитрат. Шеър ва шоирлик. 4-жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 10.

[3] А.Фитрат.Аруз ҳақида. – Т.:Ўқитувчи, 1997. (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ҳ.Болтабоев). 12-бет.

[4] А.Фитрат.Аруз ҳақида./ Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият,2010. – Б.238

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

she’riyatda ham asta-asta arablarga xos yangilanishlar bo‘y ko‘rsata boshladi.

Fitrat risolada aruz nazariyasini taqdim qilish barobarida qiyosiy tahlillarga ham keng o‘rin ajratgan. Olim baytlar taqsimotida Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Bobur, Huvaydo, Muhammad Alixon, Fazliy, Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Ravnaq, Hashmat, N.Rahimiy, Usmon Nosir kabi turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlar ijodiga murojaat qiladi.

“Aruz haqida” risolasining aruzshunoslikdagi muhim jihatlaridan biri shundaki, Fitrat ruboiy vaznlarini alohida sarlavha ostida taqdim qiladi. Olim ruboiyni Eron she’rlari orasida sobit bir vaznga ega bo‘lmagan janr sifatida ta’riflaydi.

Aruz vazniga bag‘ishlangan risolalar adabiyotimiz tarixida talaygina. Ular orasida Abdurauf Fitratning “Aruz haqida” risolasi alohida o‘rin va ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda aruz vazniga oid nazariy qarashlar ilmiy asoslar hamda qiyosiy tahlillar orqali keng yoritilgan. Fitratning “Aruz haqida” risolasida aruzning shakllanish va rivojlanish tarixi, mumtoz adabiyotdagi o‘ziga xos xususiyatlari, barmoq vaznidan farqli jihatlari, shuningdek, uning turkiy she’riyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Фитрат. Аруз ҳақида. – Т.:Ўқитувчи, 1997. (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ҳ.Болтабоев)ю12-бет.
2. А.Фитрат.Аруз ҳақида./ Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият,2010. – Б.238
3. Abdurauf Fitrat. Aruz haqida. www.ziyo.com kutubxonasi.
4. Fitrat portreti. Unutilmas siymolar. – Toshkent, 1999.
5. Фитрат. Адабиёт қоидалари. 4-жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 35.
6. Фитрат. Шеър ва шоирлиқ. 4-жилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 10.
7. Hamroyeva Orzigul. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari [Matn] : monografiya / Orzigul Hamroyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 84 b.
8. M. Abdullayeva. Mumtoz tarixiy poetika [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent, 2023. – 404 b.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.